**Приложение №2**
к порядку ведения банковских счетов эскроу
и осуществления расчетов по договорам купли-продажи
недвижимого имущества и транспортных средств
посредством электронного обмена данными
между нотариусами и АКБ «Asia Alliance Bank»

Eskrou bank hisobvaraqlarini yuritish va «Asia Alliance Bank» ATB
va notariuslar o'rtasida elektron ma'lumotlar almashinuvi orqali ko'chmas mulk
va transport vositalarini oldi-sotdi shartnomalari bo'yicha
hisob-kitoblarni amalga oshirish Tartibiga **2-Ilova**

<table>
<tr>
<td>

**УТВЕРЖДЕНО**
Правлением
АКБ «Asia Alliance Bank»

№ 23/8 от «31» марта 2026г.

**ДОГОВОР – ПУБЛИЧНАЯ ОФЕРТА**

**ОБ ОТКРЫТИИ И ОБСЛУЖИВАНИИ СПЕЦИАЛЬНЫХ БАНКОВСКИХ СЧЕТОВ ЭСКРОУ ДЛЯ РАСЧЕТОВ ПО СДЕЛКАМ С НЕДВИЖИМОСТЬЮ И АВТОТРАНСПОРТНЫМИ СРЕДСТВАМИ**

**1. ТЕРМИНЫ И ОПРЕДЕЛЕНИЯ**

1.1. **Банк (Эскроу-агент)** — АКБ «Asia Alliance Bank», коммерческий банк Республики Узбекистан, обладающий правом на осуществление банковской деятельности в соответствии с законодательством Республики Узбекистан, выступающий в рамках настоящей Оферты в качестве эскроу-агента, формирующий условия оказания услуги по открытию и обслуживанию эскроу-счетов, обеспечивающий их ведение, блокирование денежных средств, электронный обмен сведениями с нотариусом через систему «Notarius», а также осуществляющий перечисление либо возврат денежных средств в случаях и порядке, предусмотренных настоящей Офертой, внутренними документами Банка и законодательством Республики Узбекистан.

1.2. **Публичная оферта (Оферта)** — настоящий документ, размещенный Банком на

</td>
<td>

«Asia Alliance Bank» ATB
Boshqaruvi tomonidan
**TASDIQLANGAN**

2026y. «31» mart № 23/8

**KO'CHMAS MULK VA AVTOTRANSPORT VOSITALARI BILAN BITIMLAR YUZASIDAN HISOB-KITOBLARI UCHUN MAXSUS BANK ESKROU HISOBVARAQLARINI OCHISH VA ULARGA XIZMAT KO'RSATISH TO'G'RISIDA**

**OMMAVIY OFERTA SHARTNOMASI**

**1. ATAMALAR VA TA'RIFLAR**

1.1. **Bank (Eskrou-agent)** — «Asia Alliance Bank» ATB, O'zbekiston Respublikasining tijorat banki bo'lib, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq bank faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega, ushbu Oferta doirasida eskrou-agent sifatida faoliyat yuritadi, eskrou hisobvaraqlarini ochish va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmat ko'rsatish shartlarini shakllantiradi, ularni yuritishni, pul mablag'larini bloklashni, «Notarius» tizimi orqali notarius bilan elektron ma'lumot almashinuvini ta'minlaydi, shuningdek ushbu Oferta, Bankning ichki hujjatlari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda va tartibda pul mablag'larini o'tkazishni yoki qaytarishni amalga oshiradi.

1.2. **Ommaviy oferta (Oferta)** — Bank tomonidan Internet tarmog'ida Bankning rasmiy saytida joylashtirilgan ushbu hujjat bo'lib, unda Bank

</td>
</tr>
</table>

| | |
|---|---|
| официальном сайте Банка в сети Интернет, содержащий все существенные и иные условия оказания Банком услуги по открытию и обслуживанию эскроу-счета, адресованный неопределенному кругу лиц и являющийся обязательным для применения ко всем лицам, совершившим акцепт в порядке, предусмотренном настоящей Офертой. | tomonidan eskrou hisobvarag‘ini ochish va unga xizmat ko’rsatish bo’yicha xizmatlarni taqdim etishning barcha muhim va boshqa shartlari bayon etilgan, noma’lum doiradagi shaxslarga qaratilgan hamda ushbu Oferta bilan nazarda tutilgan tartibda akseptni amalga oshirgan barcha shaxslar uchun majburiy hisoblanadi. |
| 1.3. **Договор эскроу-счета / Договор** — договор между Банком и Депонентом, заключаемый путем акцепта настоящей Оферты, регулирующий порядок открытия, ведения, использования и закрытия эскроу-счета, а также порядок блокирования, перечисления и возврата денежных средств, размещенных на таком счете. | 1.3. **Eskrou hisobvarag‘i shartnomasi /Shartnoma** — Bank va Deponent o’rtasida ushbu Ofertani aksept qilish yo’li bilan tuziladigan shartnoma bo’lib, eskrou hisobvarag‘ini ochish, yuritish, undan foydalanish va yopish tartibini, shuningdek ushbu hisobvaraqda joylashtirilgan pul mablag‘larini bloklash, o’tkazish va qaytarish tartibini tartibga soladi. |
| 1.4. **Депонент (Покупатель и его представитель)** — физическое или юридическое лицо, заключившее с Банком Договор путем Акцепта настоящей Оферты для исполнения обязательств по оплате перед Бенефициаром. | 1.4. **Deponent (Sotib oluvchi va uning vakili)** — Benefitsiar oldidagi to’lov majburiyatlarini ijro etish uchun ushbu Ofertani aksept qilish yo’li bilan Bank bilan Shartnoma tuzgan jismoniy yoki yuridik shaxs. |
| 1.5. **Бенефициар (Продавец и его представитель)** — физическое или юридическое лицо, либо его надлежаще уполномоченный представитель, являющееся стороной договора купли-продажи недвижимого имущества или транспортного средства, по инициативе которого в Банке открывается эскроу-счет, и которое обеспечивает внесение на него денежных средств в размере, предусмотренном условиями сделки и настоящей Офертой. | 1.5. **Benefitsiar (Sotuvchi va uning vakili)** — ko’chmas mulk yoki transport vositasini oldi-sotdi shartnomasining tomoni bo’lgan jismoniy yoki yuridik shaxs yoxud uning tegishli tarzda vakolat berilgan vakili bo’lib, uning tashabbusi bilan Bankda eskrou hisobvarag‘i ochiladi hamda u bitim shartlari va ushbu Oferta bilan nazarda tutilgan miqdorda pul mablag‘larini ushbu hisobvaraqqa kiritilishini ta’minlaydi. |
| 1.6. **Представитель** — лицо, действующее от имени и в интересах покупателя или продавца на основании доверенности, закона, учредительных документов, решения уполномоченного органа либо иного документа, признаваемого достаточным в соответствии с законодательством Республики Узбекистан и внутренними требованиями Банка. | 1.6. **Vakil** — ishonchnoma, qonun, ta’sis hujjatlari, vakolatli organ qarori yoki O’zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning ichki talablariga muvofiq yetarli deb e’tirof etiladigan boshqa hujjat asosida sotib oluvchi yoki sotuvchi nomidan va manfaatlarini ko’zlab harakat qiluvchi shaxs. |
| 1.7. **Счет эскроу** — специальный банковский счет в национальной валюте (сум), имеющий ограниченный режим распоряжения, открываемый Банком Депоненту для учета и блокирования денежных средств в целях их | 1.7. **Eskrou hisobvarag‘i** — milliy valyutada (so’m) ochiladigan, foydalanish rejimi cheklangan maxsus bank hisobvarag‘i bo’lib, Bank tomonidan Deponentga pul mablag‘larini hisobga olish va ularni To’lov shartlari yuzaga kelganda |

| | |
|---|---|
| передачи Бенефициару при наступлении Условий выплаты. | Benefisiarga o'tkazish maqsadida bloklash uchun ochiladi. |
| 1.8. **Система «Notarius»** — автоматизированная информационная система нотариата, интегрированная с банковской системой посредством защищенных каналов связи для обмена данными в режиме реального времени. | 1.8. **«Notarius» tizimi** — real vaqt rejimida ma'lumot almashish uchun himoyalangan aloqa kanallari orqali bank tizimi bilan integratsiyalashgan notariatning avtomatlashtirilgan axborot tizimi. |
| 1.9. **Электронный запрос нотариуса** — электронное сообщение, направляемое нотариусом в Банк через систему «Notarius» до удостоверения сделки, в целях проверки наличия денежных средств на эскроу-счете, достаточных для совершения расчетов по сделке. | 1.9. **Notariusning elektron so'rovi** — bitimni tasdiqlashdan avval notarius tomonidan "Notarius" tizimi orqali Bankka yuboriladigan, bitim bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun yetarli miqdorda pul mablag'lari eskrou hisobvarag'ida mavjudligini tekshirish maqsadidagi elektron xabar. |
| 1.10. **Электронное подтверждение сделки** — электронное сообщение, направляемое нотариусом в Банк через систему «Notarius» после нотариального удостоверения сделки, содержащее сведения, необходимые для перечисления денежных средств продавцу либо нескольким продавцам в соответствии с законодательством и настоящей Офертой. | 1.10. **Bitimning elektron tasdig'i** — bitim notarial tasdiqlanganidan so'ng notarius tomonidan «Notarius» tizimi orqali Bankka yuboriladigan, qonunchilik va ushbu Oferta talablariga muvofiq pul mablag'larini sotuvchiga yoki bir nechta sotuvchilarga o'tkazish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan elektron xabar. |
| 1.11. **Депонируемая сумма** — денежные средства в национальной валюте РУз (UZS), подлежащие внесению покупателем на эскроу-счет в размере, соответствующем цене сделки либо ее согласованной части, если сделка совершается на условиях внесения первоначального платежа или с привлечением кредитных средств. | 1.11. **Deponent qilinadigan summa** — sotib oluvchi tomonidan eskrou hisobvarag'iga kiritilishi lozim bo'lgan, bitim narxiga yoki uning kelishilgan qismiga mos keladigan miqdordagi O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasidagi (UZS) pul mablag'lari, agar bitim dastlabki to'lov kiritish sharti bilan yoki kredit mablag'larini jalb etgan holda amalga oshirilsa. |
| 1.12. **Объект сделки** — недвижимое имущество либо транспортное средство, в отношении которого заключается договор купли-продажи и расчеты по которому осуществляются с использованием эскроу-счета. | 1.12. **Bitim obyekti** — ko'chmas mulk yoki transport vositasi bo'lib, unga nisbatan oldi-sotdi shartnomasi tuziladi va u bo'yicha hisob-kitoblar eskrou hisobvarag'idan foydalanilgan holda amalga oshiriladi. |
| 1.13. **Реквизиты сторон сделки** — совокупность идентификационных, регистрационных, банковских и иных данных, необходимых для открытия эскроу-счета, взаимодействия с нотариусом, проведения расчетов и исполнения Банком требований законодательства, включая, помимо прочего, фамилию, имя, отчество, данные документа, удостоверяющего личность, ПИНФЛ/ИНН, сведения об объекте сделки, сумму сделки, | 1.13. **Bitim tomonlarining rekvizitlari** — eskrou hisobvarag'ini ochish, notarius bilan o'zaro hamkorlik qilish, hisob-kitoblarni amalga oshirish va Bank tomonidan qonunchilik talablarini ijro etish uchun zarur bo'lgan identifikatsion, ro'yxatga olish, bank va boshqa ma'lumotlar majmui, jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, familiya, ism, otasining ismi, shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari, JSHSHIR/STIR, bitim obyekti |

| | |
|---|---|
| банковские реквизиты и иные обязательные сведения. | to’g‘risidagi ma'lumotlar, bitim summasi, bank rekvizitlari va boshqa majburiy ma'lumotlar. |
| 1.14. **ПИНФЛ** — персональный идентификационный номер физического лица. | 1.14. **JShShIR** — jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami. |
| 1.15. **ИНН** — идентификационный номер налогоплательщика. | 1.15. **STIR** — soliq to’lovchining identifikatsiya raqami. |
| 1.16. **Идентификация / Верификация** — комплекс предусмотренных законодательством и внутренними документами Банка мероприятий по установлению личности Депонента, его представителя, бенефициарного собственника, а также по проверке полноты, актуальности, достоверности и достаточности сведений и документов, необходимых для открытия и обслуживания эскроу-счета. | 1.16. **Identifikatsiya / Verifikatsiya** — O’zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning ichki hujjatlarida nazarda tutilgan, Deponentning, uning vakilining, benefitsiar mulkdorning shaxsini aniqlashga, shuningdek eskrou hisobvarag‘ini ochish va unga xizmat ko’rsatish uchun zarur bo’lgan ma'lumotlar va hujjatlarning to’liqligi, dolzarbligi, ishonchliligi va yetarliligini tekshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui. |
| 1.9. **Условие выплаты** — получение Банком из Системы «Notarius» электронного подтверждения о факте нотариального удостоверения сделки (Основного договора) и наличии оснований для перечисления средств. | 1.9. **To’lov sharti** — Bank tomonidan «Notarius» tizimidan bitimning (Asosiy shartnomaning) notarial tasdiqlanganligi fakti hamda mablag‘larni o’tkazish uchun asoslar mavjudligi to’g‘risidagi elektron tasdiqni olish. |
| **2. ОБЩИЕ ПОЛОЖЕНИЯ** | **2. UMUMIY QOIDALAR** |
| 2.1. Настоящая Оферта определяет порядок, условия и правовой режим открытия, обслуживания, использования и закрытия эскроу-счетов, открываемых Банком для осуществления расчетов по договорам купли-продажи недвижимого имущества и транспортных средств, а также регулирует порядок информационного взаимодействия Банка с нотариусами через систему «Notarius», порядок блокирования денежных средств, порядок их перечисления продавцу и возврата покупателю. | 2.1. Ushbu Oferta ko’chmas mulk va transport vositalarini oldi-sotdi shartnomalari bo’yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun Bank tomonidan ochiladigan eskrou hisobvaraqlarini ochish, ularga xizmat ko’rsatish, foydalanish va yopish tartibi, shartlari hamda huquqiy rejimini belgilaydi, shuningdek Bankning «Notarius» tizimi orqali notariuslar bilan axborot almashinuvi tartibini, pul mablag‘larini bloklash tartibini, ularni sotuvchiga o’tkazish va sotib oluvchiga qaytarish tartibini tartibga soladi. |
| 2.2. Настоящая Оферта разработана в соответствии с законодательством Республики Узбекистан, включая: | 2.2. Ushbu Oferta O’zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ishlab chiqilgan, jumladan: |
| 2.2.1. Гражданское законодательство Республики Узбекистан.<br>2.2.2. законодательство о банках и банковской деятельности.<br>2.2.3. нормативно - правовые акты Центрального банка Республики Узбекистан.<br>2.2.4. нормативный акт, зарегистрированный Министерством юстиции Республики | 2.2.1. O’zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligi.<br>2.2.2. banklar va bank faoliyati to’g‘risidagi qonunchiligi.<br>2.2.3. O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ-huquqiy hujjatlari.<br>2.2.4. 2026 yil 16 martda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 3790-son bilan |

| | |
|---|---|
| Узбекистан № 3790 от 16 марта 2026 года, регулирующий порядок электронного обмена данными между нотариусами и банками при расчетах по договорам купли-продажи недвижимого имущества и транспортных средств. | ro'yxatdan o'tkazilgan, ko'chmas mulk va transport vositalarini oldi-sotdi shartnomalari bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirishda notariuslar va banklar o'rtasida elektron ma'lumot almashinuvi tartibini tartibga soluvchi normativ hujjat. |
| 2.3. Банк выступает в качестве независимого эскроу-агента и действует исключительно в пределах функций, прямо предусмотренных законодательством, настоящей Офертой и внутренними документами Банка. Банк не является стороной договора купли-продажи, не участвует в согласовании его условий, не формирует волю сторон сделки и не заменяет собой нотариуса, государственный орган, оценщика, регистратора либо иного участника сделки. | 2.3. Bank mustaqil eskrou-agent sifatida faoliyat yuritadi va faqat qonunchilik, ushbu Oferta hamda Bankning ichki hujjatlarida bevosita nazarda tutilgan funksiyalar doirasida harakat qiladi. Bank oldi-sotdi shartnomasining tomoni hisoblanmaydi, uning shartlarini kelishishda ishtirok etmaydi, bitim tomonlarining irodasini shakllantirmaydi hamda notarius, davlat organi, baholovchi, ro'yxatdan o'tkazuvchi yoki bitimning boshqa ishtirokchisi o'rnini bosmaydi. |
| **3. ПРАВОВОЙ СТАТУС ПУБЛИЧНОЙ ОФЕРТЫ И ПОРЯДОК АКЦЕПТА** | **3. OMMAVIY OFERTANING HUQUQIY MAQOMI VA AKSEPTLASH TARTIBI** |
| 3.1. Настоящая Оферта является официальным предложением Банка, адресованным неопределенному кругу лиц, и содержит все существенные условия договора счета эскроу в соответствии со статьями 353 и 363 Гражданского кодекса РУз. | 3.1. Ushbu Oferta Bankning noma'lum doiradagi shaxslarga qaratilgan rasmiy taklifi hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 353 va 363-moddalariga muvofiq eskrou hisobvarag'i shartnomasining barcha muhim shartlarini o'z ichiga oladi. |
| 3.2. Совершение Депонентом действий по подаче Заявления и фактическому зачислению Денежных средств на Счет эскроу признается полным и безоговорочным акцептом условий настоящей Оферты. | 3.2. Deponent tomonidan Ariza topshirish va Pul mablag'larini eskrou hisobvarag'iga amalda kiritish bo'yicha harakatlarning amalga oshirilishi ushbu Oferta shartlarini to'liq va shartsiz aksept qilish deb e'tirof etiladi. |
| 3.3. Совершение акцепта через дистанционные каналы обслуживания, включая мобильное приложение, интернет-банкинг, электронные формы, одноразовые пароли, усиленную электронную подпись, идентификаторы Депонента либо иные средства аутентификации, признается сторонами надлежащим способом выражения воли Депонента, если такой способ допускается законодательством и внутренними правилами Банка. | 3.3. Akseptni masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali, jumladan mobil ilova, internet-banking, elektron shakllar, bir martalik parollar, kuchaytirilgan elektron imzo, Deponentning identifikatorlari yoki boshqa autentifikatsiya vositalari orqali amalga oshirish, agar bunday usul qonunchilik va Bankning ichki qoidalari bilan ruxsat etilgan bo'lsa, tomonlar tarafidan Deponent irodasini ifodalashning tegishli usuli sifatida tan olinadi. |
| 3.4. Банк вправе в одностороннем порядке вносить изменения в Оферту. При этом новая редакция Оферты публикуется на официальном веб-сайте Банка не менее чем за 10 (десять) дней до даты её вступления в силу. Депонент и Бенефициар вправе ознакомиться | 3.4. Bank Ofertaga bir tomonlama tartibda o'zgartirishlar kiritishga haqli. Bunda Ofertaning yangi tahriri uning kuchga kirish sanasidan kamida 10 (o'n) kun oldin Bankning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi. Deponent va Benefitsiar mazkur o'zgartirishlar bilan tanishib chiqish hamda ularni |

| | |
|---|---|
| с указанными изменениями, а также принять их либо отказаться от них. В случае несогласия с изменениями Депонент и Бенефициар вправе подать заявление о расторжении договора в установленном порядке. | qabul qilish yoki rad etish huquqiga ega. O'zgartirishlar bilan rozi bo'lmagan taqdirda, Deponent va Benefitsiar belgilangan tartibda shartnomani bekor qilish to'g'risida ariza taqdim etishga haqli. |
| **4. ПОРЯДОК ОТКРЫТИЯ И ВНЕСЕНИЯ СРЕДСТВ** | **4. HISOBVARAQNI OCHISH VA MABLAG'LARNI KIRITISH TARTIBI** |
| 4.1. Открытие эскроу-счета осуществляется Банком на основании письменного либо электронного заявления (Приложения №1) покупателя или его надлежаще уполномоченного представителя, поданного по форме, установленной Банком, при условии прохождения процедур идентификации, верификации, внутреннего контроля и соблюдения иных требований, предусмотренных законодательством Республики Узбекистан, настоящей Офертой и внутренними документами Банка. | 4.1. Eskrou hisobvarag'ini ochish Bank tomonidan sotib oluvchi yoki uning tegishli tarzda vakolat berilgan vakili tomonidan Bank tomonidan belgilangan shaklda taqdim etilgan yozma yoki elektron ariza (1-ilova) asosida, identifikatsiya, verifikatsiya, ichki nazorat tartib-taomillaridan o'tish hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, ushbu Oferta va Bankning ichki hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa talablar bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi. |
| 4.2. Счет эскроу открывается исключительно для расчетов по Основному договору (купля-продажа недвижимости или ТС). Использование счета для иных целей, включая предпринимательскую деятельность, не допускается. | 4.2. Eskrou hisobvarag'i faqat Asosiy shartnoma (ko'chmas mulk yoki transport vositasining oldi-sotdisi) bo'yicha hisob-kitoblar uchun ochiladi. Hisobvaraqdan boshqa maqsadlarda, jumladan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. |
| 4.3. Счет ведется строго в национальной валюте — сум. Банк не принимает и не учитывает обязательства сторон, выраженные в иностранной валюте или привязанные к курсам иностранных валют. | 4.3. Hisobvaraq qat'iy ravishda milliy valyutada — so'mda yuritiladi. Bank xorijiy valyutada ifodalangan yoki xorijiy valyuta kurslariga bog'langan majburiyatlarni qabul qilmaydi va hisobga olmaydi. |
| 4.4. Заявление на открытие эскроу-счета должно содержать полные, актуальные и достоверные сведения, достаточные для: | 4.4. Eskrou hisobvarag'ini ochish to'g'risidagi ariza quyidagilar uchun yetarli bo'lgan to'liq, dolzarb va ishonchli ma'lumotlarni o'z ichiga olishi lozim: |
| 4.4.1. идентификации сторон сделки и их представителей;<br>4.4.2. открытия эскроу-счета;<br>4.4.3. отражения сведений в автоматизированных системах Банка;<br>4.4.4. последующего обмена данными с нотариусом через систему «Notarius»;<br>4.4.5. перечисления денежных средств продавцу либо их возврата покупателю;<br>4.4.6. исполнения Банком требований законодательства в сфере банковского | 4.4.1. bitim tomonlari va ularning vakillarini identifikatsiya qilish;<br>4.4.2. eskrou hisobvarag'ini ochish;<br>4.4.3. Bankning avtomatlashtirilgan tizimlarida ma'lumotlarni aks ettirish;<br>4.4.4. keyinchalik «Notarius» tizimi orqali notarius bilan ma'lumot almashish;<br>4.4.5. pul mablag'larini sotuvchiga o'tkazish yoki ularni sotib oluvchiga qaytarish;<br>4.4.6. Bank tomonidan bankni tartibga soluvchi, komplayens-nazorat va moliyaviy monitoring sohasidagi qonunchilik talablarinihg ijro etilishi. |

| | |
|---|---|
| регулирования комплаенс-контроля и финансового мониторинга. | |
| 4.5. В заявлении в обязательном порядке указываются:<br>4.5.1. фамилия, имя, отчество каждой стороны сделки;<br>4.5.2. серия и номер документа, удостоверяющего личность, либо иные идентификационные сведения, предусмотренные законодательством;<br>4.5.3. ПИНФЛ стороны — физического лица;<br>4.5.4. наименование и ИНН стороны — юридического лица;<br>4.5.4. сведения об объекте сделки;<br>4.5.5. сумма договора купли-продажи либо сумма подлежащих депонированию денежных средств;<br>4.5.6. банковские реквизиты сторон сделки;<br>4.5.7. сведения о банковском счете или счетах продавца, на которые подлежат перечислению денежные средства;<br>4.5.8. сведения о представителях сторон, если стороны действуют через представителей;<br>4.5.9. иные сведения, которые Банк сочтет необходимыми для открытия и обслуживания эскроу-счета. | 4.5. Arizada majburiy tartibda quyidagilar ko’rsatiladi:<br>4.5.1. bitimning har bir tomonining familiyasi, ismi, otasining ismi;<br>4.5.2. shaxsni tasdiqlovchi hujjatning seriyasi va raqami yoki qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa identifikatsion ma'lumotlar;<br>4.5.3. tomon — jismoniy shaxsning JSHSHIR;<br>4.5.4. tomon — yuridik shaxsning nomi va STIR;<br>4.5.4. bitim obyekti to’g‘risidagi ma'lumotlar;<br>4.5.5. oldi-sotdi shartnomasi summasi yoki deponent qilinishi lozim bo’lgan pul mablag‘lari summasi;<br>4.5.6. bitim tomonlarining bank rekvizitlari;<br>4.5.7. pul mablag‘lari o’tkazilishi lozim bo’lgan sotuvchining bank hisobvarag‘i yoki hisobvaraqlari to’g‘risidagi ma'lumotlar;<br>4.5.8. agar tomonlar vakillar orqali harakat qilsa, ularning vakillari to’g‘risidagi ma'lumotlar;<br>4.5.9. Bank eskrou hisobvarag‘ini ochish va unga xizmat ko’rsatish uchun zarur deb hisoblagan boshqa ma'lumotlar. |
| 4.6. Депонент обязан внести Денежные средства в полном объеме, указанном в Заявлении. Банк не подтверждает наличие средств нотариусу до момента их фактического зачисления на счет и завершения процедур финансового мониторинга. | 4.6. Deponent Arizada ko’rsatilgan miqdorda Pul mablag‘larini to‘liq hajmda kiritishi shart. Bank mablag‘lar hisobvaraqqa amalda kiritilgunga va moliyaviy monitoring tartib-taomillari yakunlanmagunga qadar notariusga mablag‘lar mavjudligini tasdiqlamaydi. |
| 4.7. Депонент обязан незамедлительно уведомлять Банк о любых изменениях сведений, предоставленных при открытии эскроу-счета, включая изменение паспортных данных, ПИНФЛ/ИНН, банковских реквизитов, состава сторон сделки, данных представителей, реквизитов продавца и иных значимых обстоятельств. До получения такого уведомления Банк вправе исходить из ранее представленных сведений как из достоверных. | 4.7. Deponent eskrou hisobvarag‘ini ochishda taqdim etilgan ma'lumotlardagi har qanday o’zgarishlar, jumladan pasport ma'lumotlari, JSHSHIR/STIR, bank rekvizitlari, bitim tomonlari tarkibi, vakillar ma'lumotlari, sotuvchi rekvizitlari va boshqa muhim holatlar o’zgarganligi to’g‘risida Bankni zudlik bilan xabardor qilishi shart. Bunday xabarnoma olinmaguniga qadar Bank ilgari taqdim etilgan ma'lumotlarni ishonchli deb hisoblashga haqli. |
| 4.8. Все риски, связанные с указанием некорректных, неполных или устаревших сведений в заявлении, несет депонент, если иное не доказано как вызванное виновными действиями Банка. | 4.8. Arizada noto’g‘ri, to‘liq bo’lmagan yoki eskirgan ma'lumotlarni ko’rsatish bilan bog‘liq barcha xavflar Deponent zimmasiga yuklanadi, agar boshqacha holat Bankning aybli harakatlari natijasida yuzaga kelganligi isbotlanmasa. |

| | |
|---|---|
| 4.9. После открытия эскроу-счета покупатель либо его представитель обеспечивает внесение на него денежных средств в размере, предусмотренном условиями сделки и/или заявлением, поданным в Банк. | 4.9. Eskrou hisobvarag‘i ochilgandan so’ng sotib oluvchi yoki uning vakili bitim shartlarida va/yoki Bankka taqdim etilgan arizada nazarda tutilgan miqdorda pul mablag‘larini ushbu hisobvaraqqa kiritilishini ta’minlaydi. |
| 4.10. Денежные средства могут быть внесены на эскроу-счет: | 4.10. Pul mablag‘lari eskrou hisobvarag‘iga quyidagi usullar bilan kiritilishi mumkin: |
| 4.10.1. наличным способом через кассу Банка; | 4.10.1. Bank kassasi orqali naqd pul shaklida; |
| 4.10.2. безналичным способом путем перевода с банковского счета, банковской карты, электронного кошелька либо иного платежного инструмента, допускаемого Банком; | 4.10.2. bank hisobvarag‘idan, bank kartasidan, elektron hamyondan yoki Bank tomonidan ruxsat etilgan boshqa to’lov vositasidan o’tkazish yo’li bilan naqdsiz shaklda; |
| 4.10.3. иным способом, предусмотренным банковскими продуктами Банка и не противоречащим законодательству. | 4.10.3. Bankning bank mahsulotlarida nazarda tutilgan va qonunchilikka zid bo’lmagan boshqa usulda. |
| 4.11. Если сделка предусматривает полное финансирование покупателем, на эскроу-счет вносится вся сумма, необходимая для расчетов по сделке. | 4.11. Agar bitim sotib oluvchi tomonidan to’liq moliyalashtirilishini nazarda tutsa, eskrou hisobvarag‘iga bitim bo’yicha hisob-kitoblar uchun zarur bo’lgan barcha summa kiritiladi. |
| 4.12. Если сделка совершается с условием отсрочки исполнения части денежного обязательства, рассрочки либо внесения первоначального платежа, на эскроу-счет подлежит внесению та сумма, которая согласована сторонами сделки и допускается применимым регулированием и внутренними правилами Банка. | 4.12. Agar bitim pul majburiyatining bir qismini kechiktirib ijro etish, bo’lib-bo’lib to’lash yoki dastlabki to’lov kiritish sharti bilan amalga oshirilsa, eskrou hisobvarag‘iga bitim tomonlari tarafidan kelishilgan va qo’llsniladigan tartibga solish hamda Bankning ichki qoidalari bilan ruxsat etilgan summa kiritilishi lozim. |
| 4.13. Если сделка полностью или частично финансируется за счет кредитных средств, порядок внесения средств на эскроу-счет либо перечисления продавцу определяется с учетом условий кредитного финансирования, требований законодательства, внутренних процедур кредитующего банка и порядка электронного обмена с нотариусом. | 4.13. Agar bitim to‘liq yoki qisman kredit mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilsa, eskrou hisobvarag‘iga mablag‘larni kiritish yoki sotuvchiga o’tkazish tartibi kreditlash shartlari, qonunchilik talablari, kredit beruvchi bankning ichki tartib-taomillari hamda notarius bilan elektron ma'lumot almashish tartibini hisobga olgan holda belgilanadi. |
| 4.14. В случае, если кредитование осуществляется Банком, открывшим эскроу-счет, Банк вправе объединить операционные процедуры в едином технологическом процессе, при этом специальные правила эскроу-счета сохраняют свое действие в части внесенных покупателем собственных средств и в части последующего перечисления продавцу. | 4.14. Agar kreditlash eskrou hisobvarag‘ini ochgan Bank tomonidan amalga oshirilsa, Bank operatsion tartib-taomillarni yagona texnologik jarayonga birlashtirishga haqli, bunda eskrou hisobvarag‘ining maxsus qoidalari sotib oluvchi tomonidan kiritilgan o’z mablag‘lari qismida hamda keyinchalik sotuvchiga o’tkazish qismida o’z amal qilishini saqlab qoladi. |

| | |
|---|---|
| 4.15. При поступлении на эскроу-счет суммы, превышающей размер подлежащих депонированию денежных средств, Банк вправе: | 4.15. Eskrou hisobvarag‘iga deponent qilinishi lozim bo’lgan pul mablag‘lari miqdoridan ortiq summa kelib tushgan taqdirda, Bank quyidagilarga haqli: |
| 4.15.1. отказать в принятии излишней суммы;<br>4.15.2. вернуть сумму превышения плательщику;<br>4.15.3. запросить у Депонента уточняющие документы или пояснения; | 4.15.1. ortiqcha summani qabul qilishni rad etish;<br>4.15.2. ortiqcha summani to’lovchiga qaytarish;<br>4.15.3. Deponentdan aniqlashtiruvchi hujjatlar yoki tushuntirishlar talab qilish; |
| 4.15.4. совершить иные действия, предусмотренные внутренними документами Банка. | 4.15.4. Bankning ichki hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshirish. |
| 4.16. При поступлении суммы, меньшей необходимой для расчета по сделке, такие средства учитываются Банком в фактически поступившем размере, однако не образуют достаточного основания для подтверждения нотариусу готовности к совершению расчетов в объеме полной суммы сделки, если иное прямо не допускается законодательством или условиями конкретной сделки. | 4.16. Agar bitim bo’yicha hisob-kitoblar uchun zarur bo’lgan summadan kam mablag‘ kelib tushsa, bunday mablag‘lar Bank tomonidan amalda kelib tushgan miqdorda hisobga olinadi, biroq qonunchilik yoki aniq bitim shartlarida boshqacha to’g‘ridan-to’g‘ri nazarda tutilmagan bo’lsa, notariusga bitimning to’liq summasi hajmida hisob-kitoblarni amalga oshirishga tayyorlikni tasdiqlash uchun yetarli asos hisoblanmaydi. |
| **5. РЕЖИМ ЭСКРОУ-СЧЕТА И БЛОКИРОВАНИЕ** | **5. ESKROU HISOBVARAG‘I REJIMI VA BLOKLASH** |
| 5.1. С момента зачисления средств и до момента наступления условий выплаты (или возврата), денежные средства находятся в режиме исключительного владения Банка как эскроу-агента. | 5.1. Mablag‘lar hisobvaraqqa o’tkazilgan paytdan boshlab va to’lov shartlari (yoki qaytarish) yuzaga kelguniga qadar, pul mablag‘lari eskrou-agent sifatida Bankning mutlaq egaligi rejimida bo’ladi. |
| 5.10. Ограничение прав: | 5.10. Huquqlarni cheklash: |
| 5.10.1. Депонент не вправе отозвать средства в одностороннем порядке после их зачисления, если Основной договор находится в процессе нотариального удостоверения. | 5.10.1. Agar Asosiy shartnoma notarial tasdiqlanish jarayonida bo‘lsa, Deponent mablag‘lar hisobvaraqka kiritilgandan so’ng ularni bir tomonlama tartibda qaytarib olishga haqli emas. |
| 5.10.2. Бенефициар не имеет права требования к средствам до момента фиксации перехода права собственности в системе «Notarius». | 5.10.2. Mulk huquqi o’tishi «Notarius» tizimida qayd etilgunga qadar Benefitsiar mablag‘larga nisbatan talab qilish huquqiga ega emas. |
| 5.11. Банк обеспечивает обособленный учет средств на счете эскроу. На данные средства не может быть обращено взыскание по обязательствам Банка. Взыскание по обязательствам Депонента или Бенефициара допускается только в случаях, прямо предусмотренных законом для спецсчетов. | 5.11. Bank eskrou hisobvarag‘idagi mablag‘larning alohida hisobini yuritishni ta’minlaydi. Mazkur mablag‘larga Bank majburiyatlari bo’yicha undiruv qaratilishi mumkin emas. Deponent yoki Benefitsiar majburiyatlari bo’yicha undiruv faqat maxsus |

| | |
|---|---|
| | hisobvaraqlar uchun qonunda bevosita nazarda tutilgan hollarda yo’l qo‘yiladi. |
| **ГЛАВА 6. УСЛОВИЯ И ПОРЯДОК ПЕРЕЧИСЛЕНИЯ СРЕДСТВ** | **6-BOB. MABLAG‘LARNI O‘TKAZISH SHARTLARI VA TARTIBI** |
| 6.1. Основанием для перечисления денежных средств с эскроу-счета продавцу является получение Банком через систему «Notarius» электронного подтверждения нотариуса о нотариальном удостоверении договора купли-продажи. | 6.1. Eskrou hisobvarag‘idan pul mablag‘larini sotuvchiga o’tkazish uchun asos Bank tomonidan «Notarius» tizimi orqali oldi-sotdi shartnomasining notarial tasdiqlanganligi to’g‘risida notariusdan elektron tasdiqni olish hisoblanadi. |
| 6.2. До удостоверения сделки нотариус направляет в Банк электронный запрос о наличии денежных средств на эскроу-счете. Банк предоставляет нотариусу сведения в режиме реального времени в объеме, предусмотренном законодательством и технологией взаимодействия. | 6.2. Bitimni tasdiqlashdan oldin notarius Bankka eskrou hisobvarag‘ida pul mablag‘lari mavjudligi to’g‘risida elektron so’rov yuboradi. Bank notariusga qonunchilik va o’zaro hamkorlik texnologiyasida nazarda tutilgan hajmda ma'lumotlarni real vaqt rejimida taqdim etadi. |
| 6.3. Банк осуществляет перечисление денежных средств продавцу только при наличии на эскроу-счете фактически доступного остатка в размере, достаточном для исполнения расчета. Если на момент получения подтверждения нотариуса сумма на эскроу-счете недостаточна, Банк не осуществляет перечисление до устранения недостаточности, если иное прямо не предусмотрено законодательством или условиями сделки. | 6.3. Bank pul mablag‘larini sotuvchiga faqat eskrou hisobvarag‘ida hisob-kitobni amalga oshirish uchun yetarli miqdorda amalda mavjud qoldiq bo’lgan taqdirdagina o’tkazadi. Agar notarius tasdig‘i olingan paytda eskrou hisobvarag‘idagi summa yetarli bo‘lmasa, qonunchilik yoki bitim shartlarida boshqacha tartib to’g‘ridan-to’g‘ri nazarda tutilmagan bo’lsa, Bank yetishmovchilik bartaraf etilgunga qadar o’tkazishni amalga oshirmaydi. |
| 6.4. Перечисление денежных средств осуществляется программным комплексом Банка автоматически в режиме реального времени. Банк не требует дополнительных платежных поручений от Депонента после получения сигнала от Системы «Notarius». | 6.4. Pul mablag’larini o’tkazmasi Bankning dasturiy kompleksi tomonidan avtomatik ravishda real vaqt rejimida amalga oshiriladi. «Notarius» tizimidan signal olingandan so’ng Bank Deponentdan qo’shimcha to’lov topshiriqnomalarini talab qilmaydi. |
| 6.5. При наличии нескольких Бенефициаров, средства распределяются строго в соответствии с пропорциями (долями), указанными в данных Системы «Notarius». | 6.5. Bir nechta Benefitsiar mavjud bo’lgan taqdirda, mablag‘lar «Notarius» tizimi ma'lumotlarida ko’rsatilgan nisbatlar (ulushlar)ga qat'iy muvofiq taqsimlanadi. |
| 6.6. Обязательство Банка по выплате считается исполненным в момент списания средств с транзитного счета Банка в адрес банка Бенефициара (или зачисления на счет Бенефициара, если он открыт в данном Банке). | 6.6. Bankning to’lov bo’yicha majburiyati mablag‘lar Bankning tranzit hisobvarag‘idan Benefitsiar banki manziliga chiqarilgan (yoki Benefitsiarning hisobvarag‘iga, agar u ushbu Bankda ochilgan bo’lsa, o’tkazilganda) paytda bajarilgan deb hisoblanadi. |

| | |
|---|---|
| 6.7. Банк не несет ответственности за последующие задержки в зачислении денежных средств на счет продавца, если такие задержки вызваны действиями или бездействием банка-получателя, платежной системы, техническими ограничениями инфраструктуры либо иными обстоятельствами, находящимися вне разумного контроля Банка. | 6.7. Agar pul mablag‘larini sotuvchining hisobvarag‘iga kiritishda keyingi kechikishlar qabul qiluvchi bank, to’lov tizimi, infratuzilmaning texnik cheklovlari yoki Bankning oqilona nazoratidan tashqaridagi boshqa holatlar sababli yuzaga kelgan bo’lsa, Bank bunday kechikishlar uchun javobgar bo’lmaydi. |
| **7. ВОЗВРАТ ДЕНЕЖНЫХ СРЕДСТВ** | **7. PUL MABLAG‘LARINI QAYTARISH** |
| 7.1. Возврат средств Депоненту осуществляется в случаях: | 7.1. Deponentga mablag‘larni qaytarish quyidagi hollarda amalga oshiriladi: |
| 7.1.1. Получения от нотариуса уведомления об отказе в удостоверении сделки. | 7.1.1. Notariusdan bitimni tasdiqlash rad etilganligi to’g‘risida xabarnoma olinganda. |
| 7.1.2. Истечения срока депонирования, указанного в Заявлении (если сделка не состоялась). | 7.1.2. Arizada ko‘rsatilgan deponentlash muddati tugaganda (agar bitim amalga oshmagan bo’lsa). |
| 7.1.3. Совместного заявления Депонента и Бенефициара о расторжении соглашения (до момента удостоверения сделки). | 7.1.3. Deponent va Benefitsiarning kelishuvni bekor qilish to’g‘risidagi qo‘shma arizasi mavjud bo’lganda (bitim tasdiqlanishidan avval). |
| 7.2. Возврат осуществляется по реквизитам, с которых средства поступили, либо на иной счет Депонента, открытый в Банке. | 7.2. Qaytarish mablag‘lar kelib tushgan rekvizitlar bo’yicha yoki Bankda ochilgan Deponentning boshqa hisobvarag‘iga amalga oshiriladi. |
| **ГЛАВА 8. ПРАВА И ОБЯЗАННОСТИ СТОРОН** | **8-BOB. TOMONLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI** |
| 8.1. **Банк обязан:** | **8.1. Bank quyidagilarga majbur:** |
| 8.1.2. обеспечить бесперебойное электронное сопряжение с ИС «Нотариус» и осуществить платеж при выполнении условий Оферты. | 8.1.2. «Notarius» AT bilan uzluksiz elektron aloqani ta’minlash va Oferta shartlari bajarilganda to’lovni amalga oshirish. |
| 8.2. **Банк имеет право:** | **8.2. Bank quyidagi huquqlarga ega:** |
| 8.2.1. приостановить выплату, если данные в Системе «Notarius» имеют признаки технической ошибки или несоответствия реквизитам Бенефициара. | 8.2.1. agar «Notarius» tizimidagi ma'lumotlarda texnik xatolik belgilari yoki Benefitsiar rekvizitlariga nomuvofiqlik aniqlansa, to’lovni to’xtatib turish; |
| 8.2.2. самостоятельно определять формы заявлений, анкет, согласий, уведомлений, перечни документов, технологические сценарии обслуживания, состав обязательных реквизитов, каналы взаимодействия и иные | 8.2.2. arizalar, anketalar, roziliklar, xabarnomalar shakllarini, hujjatlar ro’yxatini, xizmat ko’rsatishning texnologik ssenariylarini, majburiy rekvizitlar tarkibini, o’zaro hamkorlik kanallarini hamda eskrou hisobvaraqlariga xizmat |

| | |
|---|---|
| процедурные параметры обслуживания эскроу-счетов; | ko’rsatishning boshqa tartib-taomil parametrlarini mustaqil belgilash; |
| 8.2.2. удержать комиссионное вознаграждение из суммы депонирования, если это предусмотрено Тарифами. | 8.2.2. agar bu Tariflarda nazarda tutilgan bo’lsa, deponent qilingan summadan vositachilik haqini ushlab qolish. |
| 8.3. Депонент и Бенефициар обязаны предоставить Банку полные, актуальные, достоверные и непротиворечивые сведения и документы, необходимые для открытия эскроу-счета и обслуживания по нему. | 8.3. Deponent va Benefitsiar eskrou hisobvarag‘ini ochish va unga xizmat ko‘rsatish uchun zarur bo’lgan to‘liq, dolzarb, ishonchli va o’zaro zid bo’lmagan ma'lumotlar hamda hujjatlarni Bankka taqdim etishga majbur. |
| **ГЛАВА 9. ОТВЕТСТВЕННОСТЬ И ОГРАНИЧЕНИЕ РИСКОВ БАНКА** | **9-BOB. JAVOBGARLIK VA BANK XAVFLARINI CHEKLASH** |
| 9.1. Каждая сторона несет ответственность за неисполнение или ненадлежащее исполнение своих обязанностей в соответствии с законодательством Республики Узбекистан, настоящей Офертой, внутренними документами Банка, а также иными обязательными правилами, применимыми к соответствующим правоотношениям. | 9.1. Har bir tomon o’z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O’zbekiston Respublikasi qonunchiligi, ushbu Oferta, Bankning ichki hujjatlari, shuningdek tegishli huquqiy munosabatlarga tatbiq etiladigan boshqa majburiy qoidalarga muvofiq javobgar bo’ladi. |
| 9.2. Банк не является стороной Основного договора и не несет ответственности за его неисполнение, расторжение или признание недействительным. | 9.2. Bank Asosiy shartnomaning tomoni hisoblanmaydi va uning bajarilmasligi, bekor qilinishi yoki haqiqiy emas deb topilishi uchun javobgar bo’lmaydi. |
| 9.3. Банк не отвечает за убытки, расходы, упущенную выгоду, штрафы, санкции, деловые потери, репутационный вред и иные негативные последствия, возникшие у Депонента либо третьих лиц вследствие: | 9.3. Bank quyidagilar natijasida Deponent yoki uchinchi shaxslarda yuzaga kelgan zararlar, xarajatlar, boy berilgan foyda, jarimalar, sanksiyalar, ishbilarmonlik yo’qotishlari, obro’ga yetkazilgan zarar va boshqa salbiy oqibatlar uchun javobgar bo’lmaydi: |
| 9.3.1 Качество, скрытые дефекты или фактическую передачу Объекта (недвижимости/ТС). | 9.3.1. Obyektning (ko’chmas mulk/TV) sifati, yashirin nuqsonlari yoki faktik topshirilishi; |
| 9.3.2. Ошибки нотариуса при вводе данных в Систему «Notarius». | 9.3.2. «Notarius» tizimiga ma'lumot kiritishda notarius tomonidan yo’l qo’yilgan xatolar; |
| 9.3.3. Задержки платежей, возникшие на стороне банков-корреспондентов или из-за технических сбоев систем, не находящихся под разумным контролем Банка. | 9.3.3. Vakillik-banklar tomonida yoki Bankning oqilona nazoratidan tashqaridagi tizimlarning texnik nosozliklari sababli yuzaga kelgan to’lovlar kechikishi. |
| 9.4. Банк действует исключительно как независимый эскроу-агент, выполняющий расчетную, учетную, блокирующую, информационно-технологическую и | 9.4. Bank eskrou hisobvarag‘i mexanizmi doirasida hisob-kitob, hisobga olish, bloklash, axborot-texnologik va komplayens funksiyalarini |

| | |
|---|---|
| комплаенс-функцию в рамках механизма эскроу-счета. | bajaruvchi mustaqil eskrou-agent sifatida faoliyat yuritadi. |
| 9.5. Банк не является стороной договора купли-продажи, не становится участником обязательства между покупателем и продавцом, не приобретает интереса в объекте сделки и не принимает на себя риск действительности, исполнимости, экономической целесообразности и правовых последствий основной сделки. | 9.5. Bank oldi-sotdi shartnomasining tomoni hisoblanmaydi, sotib oluvchi va sotuvchi o’rtasidagi majburiyatning ishtirokchisiga aylanmaydi, bitim obyektiga nisbatan manfaatdorlik kasb etmaydi hamda asosiy bitimning haqiqiyligi, bajarilish imkoniyati, iqtisodiy maqsadga muvofiqligi va huquqiy oqibatlari uchun tavakkalchilikni o’z zimmasiga olmaydi. |
| **10. ПОРЯДОК ИЗМЕНЕНИЯ И ПРЕКРАЩЕНИЯ** | **10. O’ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI** |
| 10.1. Размещение новой редакции Оферты на официальном сайте Банка считается надлежащим способом уведомления Депонента, если иной специальный способ уведомления не является обязательным в силу законодательства Республики Узбекистан. | 10.1. Ofertaning yangi tahririni Bankning rasmiy saytida joylashtirish Deponentni xabardor qilishning tegishli usuli hisoblanadi, agar O’zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq boshqa maxsus xabardor qilish usuli majburiy bo’lmasa. |
| 10.2. Изменения и/или дополнения в Оферту утверждаются Банком в порядке, установленном внутренними документами Банка, и вступают в силу с даты, указанной Банком в соответствующей редакции Оферты либо в уведомлении о внесении изменений. | 10.2. Ofertaga o’zgartirishlar va/yoki qo’shimchalar Bank tomonidan uning ichki hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlanadi hamda Ofertaning tegishli tahririda yoki o’zgartirishlar kiritilganligi to’g‘risidagi xabarnomada Bank tomonidan ko’rsatilgan sanadan boshlab kuchga kiradi. |
| 10.3. Банк обеспечивает размещение актуальной редакции Оферты на официальном сайте Банка в сети Интернет, а также вправе дополнительно доводить информацию о внесении изменений до сведения депонентам путем: | 10.3. Bank Ofertaning dolzarb tahririni Internet tarmog‘idagi rasmiy saytida joylashtirilishini ta’minlaydi, shuningdek o’zgartirishlar kiritilganligi to’g‘risidagi ma'lumotni Deponentlarga qo’shimcha ravishda quyidagi yo’llar bilan yetkazishga haqli: |
| 10.3.1. размещения уведомлений в мобильном приложении, интернет-банкинге и иных дистанционных сервисах Банка; | 10.3.1. mobil ilova, internet-banking va Bankning boshqa masofaviy xizmatlarida xabarnomalar joylashtirish orqali; |
| 10.3.2. размещения информации в подразделениях Банка; | 10.3.2. Bank bo’linmalarida ma'lumotlarni joylashtirish orqali; |
| 10.3.3. направления SMS-, push-, e-mail- либо иных электронных уведомлений; | 10.3.3. SMS-, push-, e-mail yoki boshqa elektron xabarnomalarni yuborish orqali; |
| 10.4. Депонент обязан самостоятельно, регулярно и добросовестно отслеживать актуальную редакцию Оферты, размещенную на официальном сайте Банка, а также | 10.4. Deponent Bankning rasmiy saytida joylashtirilgan Ofertaning dolzarb tahririni mustaqil ravishda, muntazam va vijdonan kuzatib borishi, shuningdek xizmat ko‘rsatish shartlari |

| | |
|---|---|
| знакомиться с уведомлениями Банка об изменении условий обслуживания. | o'zgarganligi to'g'risidagi Bank xabarnomalari bilan tanishib borishi shart. |
| 10.5. Банк вправе публиковать Оферту в новой редакции полностью, а также отдельно размещать уведомления, краткое описание изменений, сравнительные версии либо иные информационные материалы, однако юридически обязательной для сторон является полная редакция Оферты, размещенная на официальном сайте Банка. | 10.5. Bank Ofertani to'liq yangi tahrirda e'lon qilish, shuningdek alohida ravishda xabarnomalar, o'zgarishlarning qisqacha tavsifi, taqqoslama versiyalar yoki boshqa axborot materiallarini joylashtirishga haqli, biroq tomonlar uchun yuridik jihatdan majburiy bo'lgan hujjat Bankning rasmiy saytida joylashtirilgan Ofertaning to'liq tahriri hisoblanadi. |
| 10.6. Если Депонент не согласен с новой редакцией Оферты, он вправе прекратить пользование услугой в порядке, предусмотренном настоящей Офертой и законодательством Республики Узбекистан, при условии отсутствия неисполненных обязательств, незавершенных операций, правовых ограничений и иных обстоятельств, препятствующих прекращению обслуживания. | 10.6. Agar Deponent Ofertaning yangi tahriri bilan rozi bo'lmasa, u ushbu Oferta va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda, bajarilmagan majburiyatlar, yakunlanmagan operatsiyalar, huquqiy cheklovlar va xizmat ko'rsatishni to'xtatishga to'sqinlik qiluvchi boshqa holatlar mavjud bo'lmagan taqdirda, xizmatdan foydalanishni to'xtatishga haqli. |
| 10.7. Договор эскроу-счета прекращается: | 10.7. Eskrou hisobvarag'i shartnomasi quyidagi hollarda bekor qilinadi: |
| 10.7.1. после перечисления денежных средств продавцу либо нескольким продавцам в порядке, предусмотренном настоящей Офертой; | 10.7.1. ushbu Ofertada nazarda tutilgan tartibda pul mablag'lari sotuvchiga yoki bir nechta sotuvchilarga o'tkazilgandan so'ng; |
| 10.7.2. после возврата денежных средств покупателю в случаях, когда перечисление продавцу не состоялось; | 10.7.2. pul mablag'lari sotuvchiga o'tkazilmagan hollarda sotib oluvchiga qaytarilgandan so'ng; |
| 10.7.3. при закрытии эскроу-счета в связи с невозможностью дальнейшего обслуживания по основаниям, предусмотренным законодательством и внутренними документами Банка; | 10.7.3. qonunchilik va Bankning ichki hujjatlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha keyingi xizmat ko'rsatishning imkonsizligi sababli eskrou hisobvarag'i yopilganda; |
| 10.7.4. в иных случаях, прямо предусмотренных законодательством Республики Узбекистан. | 10.7.4. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida bevosita nazarda tutilgan boshqa hollarda. |
| **11. КОМПЛАЕНС** | **11. KOMPLAYENS** |
| 11.1. Банк вправе приостановить любую операцию по Счету эскроу или отказать в перечислении средств, если у Банка возникли подозрения, что операция осуществляется в целях легализации доходов, полученных от | 11.1. Agar Bankda operatsiya jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish yoki terrorizmni moliyalashtirish maqsadida amalga oshirilayotganligi to'g'risida shubha yuzaga kelsa, Bank eskrou hisobvarag'i bo'yicha har qanday |

| | |
|---|---|
| преступной деятельности, или финансирования терроризма. | operatsiyani to'xtatib turish yoki mablag'larni o'tkazishni rad etishga haqli. |
| 11.2. Депонент и Бенефициар обязаны по первому требованию Банка предоставить документы, подтверждающие легальность происхождения Денежных средств. | 11.2. Deponent va Benefitsiar Bankning birinchi talabi bo'yicha pul mablag'larining kelib chiqishining legalligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishga majbur. |
| **12. ПЕРСОНАЛЬНЫЕ ДАННЫЕ** | **12. SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLAR** |
| 12.1. Для целей настоящей Оферты Банк вправе осуществлять обработку персональных данных Депонента, продавца, представителей сторон и иных субъектов персональных данных в объеме, необходимом для исполнения договора, требований законодательства и законных интересов Банка. | 12.1. Ushbu Ofertaning maqsadlari uchun Bank Deponentning, sotuvchining, tomonlar vakillarining va boshqa shaxsga doir ma'lumotlar subyektlarining shaxsga doir ma'lumotlarga shartnomani ijro etish, qonunchilik talablarini va Bankning qonuniy manfaatlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan hajmda ishlov berishga haqli. |
| 12.2. Под обработкой персональных данных для целей настоящей Оферты понимаются любые действия или совокупность действий с персональными данными, совершаемые с использованием средств автоматизации либо без их использования. | 12.2. Ushbu Ofertaning maqsadlari uchun shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish deganda avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda yoki ulardan foydalanmasdan amalga oshiriladigan shaxsga doir ma'lumotlar bilan bog'liq har qanday harakatlar yoki harakatlar majmui tushuniladi. |
| 12.3. Депонент подтверждает, что при передаче Банку персональных данных третьих лиц, включая продавца, представителей, выгодоприобретателей, бенефициарных собственников и иных лиц, он гарантирует наличие у него законного основания для такой передачи, а также выполнение им всех обязанностей по уведомлению соответствующих субъектов персональных данных в случаях, когда это требуется по закону. | 12.3. Deponent Bankka uchinchi shaxslarning, jumladan sotuvchi, vakillar, foyda oluvchilar, benefitsiar mulkdorlar va boshqa shaxslarning shaxsga doir ma'lumotlarini taqdim etishda, bunday uzatish uchun qonuniy asosga ega ekanligini, shuningdek qonun talab qilgan hollarda tegishli shaxsga doir ma'lumotlar subyektlarini xabardor qilish bo'yicha barcha majburiyatlarni bajarganligini tasdiqlaydi. |
| 12.4. Банк принимает необходимые правовые, организационные и технические меры для защиты персональных данных от неправомерного или случайного доступа, уничтожения, изменения, блокирования, копирования, распространения, утраты, неправомерного предоставления и иных неправомерных действий. | 12.4. Bank shaxsga doir ma'lumotlarni noqonuniy yoki tasodifiy foydalanishdan, yo'q qilishdan, o'zgartirishdan, bloklashdan, nusxa ko'chirishdan, tarqatishdan, yo'qotishdan, noqonuniy taqdim etishdan va boshqa noqonuniy harakatlardan himoya qilish uchun zarur huquqiy, tashkiliy va texnik choralarni ko'radi. |
| 12.5. Депонент соглашается с тем, что обмен данными между Банком и нотариусом, предусмотренный нормативными актами, объективно предполагает передачу персональных данных сторон сделки, их идентификационных данных, сведений об объекте сделки, сумме договора и банковских | 12.5. Deponent, normativ hujjatlarda nazarda tutilgan Bank va notarius o'rtasidagi ma'lumot almashinuvi bitim tomonlarining shaxsga doir ma'lumotlarini, ularning identifikatsion ma'lumotlarini, bitim obyekti to'g'risidagi ma'lumotlarni, shartnoma summasini va bank rekvizitlarini amaldagi tartibga solish bilan |

| | |
|---|---|
| реквизитах в объеме, установленном применимым регулированием. | belgilangan hajmda uzatishni obyektiv ravishda nazarda tutishiga rozilik bildiradi. |
| **13. КОНФИДЕНЦИАЛЬНОСТЬ** | **13. MAXFIYLIK** |
| 13.1. Банк обеспечивает конфиденциальность сведений, ставших ему известными при открытии и обслуживании эскроу-счета. | 13.1. Bank eskrou hisobvarag‘ini ochish va unga xizmat ko’rsatish jarayonida o’ziga ma’lum bo’lgan ma'lumotlarning maxfiyligini ta’minlaydi. |
| 13.2. Сведения, полученные Банком в связи с открытием и обслуживанием эскроу-счета, составляют банковскую тайну, служебную, коммерческую либо иную охраняемую законом тайну в той части, в какой такой режим предусмотрен законодательством Республики Узбекистан. | 13.2. Bank tomonidan eskrou hisobvarag‘ini ochish va unga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq holda olingan ma'lumotlar O’zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan darajada bank siri, xizmat siri, tijorat siri yoki qonun bilan qo’riqlanadigan boshqa sirni tashkil etadi. |
| **14. ФОРС-МАЖОР** | **14. FORS-MAJOR** |
| 14.1. Стороны освобождаются от ответственности за полное или частичное неисполнение либо ненадлежащее исполнение обязательств по настоящей Оферте, если такое неисполнение явилось следствием обстоятельств непреодолимой силы, возникших после заключения договора, носящих чрезвычайный и непредотвратимый при данных условиях характер и находящихся вне разумного контроля соответствующей стороны. | 14.1. Agar ushbu Ofertaga muvofiq majburiyatlarning to’liq yoki qisman bajarilmasligi yoxud lozim darajada bajarilmasligi shartnoma tuzilganidan keyin yuzaga kelgan, favqulodda va mazkur sharoitlarda oldini olib bo’lmaydigan xususiyatga ega bo’lgan hamda tegishli tomonning oqilona nazoratidan tashqarida bo’lgan yengib bo’lmas kuch holatlari natijasi bo’lsa, tomonlar bunday bajarilmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladi. |
| 14.2. К обстоятельствам непреодолимой силы для целей настоящей Оферты относятся, включая, но не ограничиваясь: стихийные бедствия, землетрясения, наводнения, пожары, ураганы и иные природные катастрофы, эпидемии, пандемии, карантинные ограничения и иные чрезвычайные санитарно-эпидемиологические меры, военные действия, вооруженные конфликты, массовые беспорядки, террористические акты, диверсии, чрезвычайное или военное положение, акты органов государственной власти и управления, запреты, ограничения, решения судов и уполномоченных органов, делающие исполнение обязательств невозможным полностью или частично, отключение электроэнергии, аварии на линиях связи, сбои в работе центров обработки данных, критические сбои телекоммуникационной, платежной, нотариальной, банковской и иной | 14.2. Ushbu Ofertaning maqsadlari uchun yengib bo’lmas kuch holatlariga, jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda quyidagilar kiradi: tabiiy ofatlar, zilzilalar, suv toshqinlari, yong‘inlar, dovullar va boshqa tabiiy falokatlar, epidemiyalar, pandemiyalar, karantin cheklovlari va boshqa favqulodda sanitariya-epidemiologik choralar, harbiy harakatlar, qurolli mojarolar, ommaviy tartibsizliklar, terrorchilik harakatlari, diversiyalar, favqulodda yoki harbiy holat, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining hujjatlari, taqiqlar, cheklovlar, sudlar va vakolatli organlarning qarorlari, majburiyatlarni to’liq yoki qisman bajarishni imkonsiz qiluvchi holatlar, elektr energiyasi uzilishi, aloqa liniyalaridagi avariyalar, ma'lumotlarga ishlov berish markazlari faoliyatidagi uzilishlar, telekommunikatsiya, to’lov, notarial, bank va boshqa infratuzilmalarning jiddiy nosozliklari, agar bunday nosozliklar favqulodda xususiyatga ega bo’lsa va Bank irodasiga bog‘liq bo’lmasa, «Notarius» tizimi, banklararo o’zaro aloqa |

| | |
|---|---|
| инфраструктуры, недоступность системы «Notarius», межбанковских каналов взаимодействия, платежных систем, процессинговых систем, государственных информационных систем, если такая недоступность носит чрезвычайный характер и не зависит от воли Банка, кибератаки, массовые вредоносные воздействия, нарушения информационной безопасности, если их последствия невозможно было разумно предотвратить имеющимися мерами. | kanallari, to'lov tizimlari, protsessing tizimlari, davlat axborot tizimlaridan foydalana olmaslik, agar bunday holat favqulodda bo'lsa va Bank irodasiga bog'liq bo'lmasa, kiberhujumlar, ommaviy zararli ta'sirlar, axborot xavfsizligi buzilishi, agar ularning oqibatlarini mavjud choralar bilan oqilona oldini olish mumkin bo'lmagan bo'lsa. |
| 14.3. Наступление обстоятельств непреодолимой силы не прекращает обязательства сторон автоматически, если иное прямо не вытекает из законодательства либо существа возникших обстоятельств, а лишь отодвигает срок их исполнения на период действия таких обстоятельств и времени, разумно необходимого для восстановления нормального исполнения обязательств. | 14.3. Yengib bo'lmas kuch holatlarining yuzaga kelishi, agar qonunchilikdan yoki yuzaga kelgan holatlarning mohiyatidan boshqacha tartib kelib chiqmasa, tomonlarning majburiyatlarini avtomatik ravishda bekor qilmaydi, balki ularning bajarilish muddatini bunday holatlar amal qilgan davrga hamda majburiyatlarning normal bajarilishini tiklash uchun oqilona zarur bo'lgan vaqtga suradi. |
| 14.4. Сторона, ссылающаяся на обстоятельства непреодолимой силы, обязана в разумный срок уведомить другую сторону о наступлении таких обстоятельств, если такое уведомление объективно возможно при данных условиях. Для Банка достаточным способом уведомления считается размещение информации на официальном сайте, в мобильном приложении, интернет-банкинге, подразделениях Банка либо направление уведомления по доступным каналам связи. | 14.4. Yengib bo'lmas kuch holatlariga tayanayotgan tomon, agar bunday xabarnoma mazkur sharoitlarda obyektiv ravishda mumkin bo'lsa, boshqa tomonni bunday holatlar yuzaga kelganligi to'g'risida oqilona muddatda xabardor qilishi shart. Bank uchun yetarli xabardor qilish usuli sifatida rasmiy saytda, mobil ilovada, internet-bankingda, Bank bo'linmalarida ma'lumot joylashtirish yoki mavjud aloqa kanallari orqali xabarnoma yuborish hisoblanadi. |
| 14.5. Банк вправе не направлять индивидуальные уведомления каждому Депоненту, если обстоятельства непреодолимой силы затрагивают массовый характер обслуживания, деятельность информационных систем или каналов связи и при этом общее уведомление является объективно достаточным и разумным. | 14.5. Agar yengib bo'lmas kuch holatlari xizmat ko'rsatishning ommaviy xususiyatiga, axborot tizimlari yoki aloqa kanallari faoliyatiga ta'sir etsa va umumiy xabarnoma obyektiv jihatdan yetarli hamda oqilona bo'lsa, Bank har bir Deponentga alohida xabarnoma yubormaslikka haqli. |
| 14.6. Банк не несет ответственности за просрочку открытия эскроу-счета, принятия денежных средств, передачи данных через систему «Notarius», перечисления денежных средств продавцу, возврата денежных средств покупателю, направления уведомлений либо совершения иных действий, если соответствующая просрочка вызвана | 14.6. Agar eskrou hisobvarag'ini ochish, pul mablag'larini qabul qilish, «Notarius» tizimi orqali ma'lumot uzatish, pul mablag'larini sotuvchiga o'tkazish, pul mablag'larini sotib luvchiga qaytarish, xabarnomalar yuborish yoki boshqa harakatlarni amalga oshirishdagi kechikishlar ushbu bo'limda ko'rsatilgan holatlar sababli |

| | |
|---|---|
| обстоятельствами, указанными в настоящем разделе. | yuzaga kelgan bo'lsa, Bank bunday kechikishlar uchun javobgar bo'lmaydi. |
| **15. РАЗРЕШЕНИЕ СПОРОВ** | **15. NIZOLARINI HAL QILISH** |
| 15.1. Все споры, разногласия и требования, возникающие между Банком и Депонентом, Банком и продавцом либо между иными участниками отношений, регулируемых настоящей Офертой, в связи с ее заключением, исполнением, изменением, прекращением, толкованием, недействительностью либо применением отдельных положений, подлежат разрешению, по возможности, путем переговоров и соблюдения досудебного (претензионного) порядка урегулирования. | 15.1. Ushbu Ofertani tuzish, ijro etish, o'zgartirish, bekor qilish, talqin qilish, haqiqiy emas deb topish yoki uning alohida qoidalarini qo'llash bilan bog'liq holda Bank va Deponent o'rtasida, Bank va sotuvchi o'rtasida yoxud ushbu Oferta bilan tartibga solinadigan munosabatlarning boshqa ishtirokchilari o'rtasida yuzaga keladigan barcha nizolar, kelishmovchiliklar va talablar imkon qadar muzokaralar yo'li bilan hamda sudgacha (talabnoma) tartibiga rioya etilgan holda hal etilishi lozim. |
| 15.2. До обращения в суд заинтересованная сторона вправе направить другой стороне письменную претензию с изложением существа требований, обстоятельств, на которых они основаны, а также приложением документов, подтверждающих заявленные обстоятельства, если такие документы отсутствуют у адресата. | 15.2. Sudga murojaat qilishdan oldin manfaatdor tomon boshqa tomonga yozma pretensiya yuborishga haqli bo'lib, unda ular asoslangan talablarning, holatlarning mohiyati bayon etiladi hamda agar bunday hujjatlar adresatda mavjud bo'lmasa, da'vo qilingan holatlarni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi. |
| 15.3. Если спор не был урегулирован в претензионном порядке либо если досудебное урегулирование не является обязательным по закону, спор подлежит разрешению в судебном порядке в соответствии с законодательством Республики Узбекистан по подведомственности и подсудности, установленным процессуальным законодательством Республики Узбекистан. | 15.3. Agar nizo talabnoma tartibida hal etilmagan bo'lsa yoki qonunga muvofiq sudgacha hal etish majburiy bo'lmasa, nizo O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi protsessual qonunchiligida belgilangan idoraviylik va sudlovlilikka muvofiq sud tartibida ko'rib chiqiladi. |
| **16. ЗАКЛЮЧИТЕЛЬНЫЕ ПОЛОЖЕНИЯ** | **16. YAKUNIY QOIDALAR** |
| 16.1. Настоящая Оферта является полным и системным документом, регулирующим общие условия открытия и обслуживания эскроу-счетов Банка для расчетов по договорам купли-продажи недвижимого имущества и транспортных средств, и подлежит применению ко всем Депонентам, совершившим акцепт, если иное прямо не предусмотрено законодательством Республики Узбекистан либо отдельным письменным соглашением между Банком и Депонентом. | 16.1. Ushbu Oferta ko'chmas mulk va transport vositalarini oldi-sotdi shartnomalari bo'yicha hisob-kitoblar uchun Bankning eskrou hisobvaraqlarini ochish va ularga xizmat ko'rsatishning umumiy shartlarini tartibga soluvchi to'liq va tizimli hujjat hisoblanadi hamda akseptni amalga oshirgan barcha Deponentlarga nisbatan qo'llanilishi lozim, agar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida yoki Bank va Deponent o'rtasida tuzilgan alohida yozma kelishuvda boshqacha bevosita nazarda tutilmagan bo'lsa. |
| 16.2. Во всем, что прямо не урегулировано настоящей Офертой, Банк, Депонент, | 16.2. Ushbu Oferta bilan bevosita tartibga solinmagan barcha masalalarda Bank, Deponent, |

| | |
|---|---|
| продавец и иные участники правоотношений руководствуются законодательством Республики Узбекистан, нормативными актами Центрального банка Республики Узбекистан, требованиями комплаенса, правилами банковского обслуживания и иными обязательными нормами применимого права. | sotuvchi va huquqiy munosabatlarning boshqa ishtirokchilari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ hujjatlariga, komplayens talablarga, bank xizmat ko'rsatish qoidalariga va amaldagi huquqning boshqa majburiy normalariga amal qiladi. |
| 16.3. Если отдельные положения настоящей Оферты будут признаны недействительными, незаконными, неисполнимыми либо утратившими силу, это не влечет недействительность остальных положений Оферты, которые сохраняют силу в максимально допустимом законом объеме. | 16.3. Agar ushbu Ofertaning ayrim qoidalari haqiqiy emas, noqonuniy, ijro etib bo'lmaydigan yoki kuchini yo'qotgan deb topilsa, bu Ofertaning boshqa qoidalarining haqiqiy emasligiga olib kelmaydi va ular qonun bilan yo'l qo'yilgan maksimal darajada o'z kuchini saqlab qoladi. |
| 16.4. Все уведомления, сообщения, данные, сведения и документы, формируемые Банком в рамках исполнения настоящей Оферты, могут создаваться и храниться в электронной форме, если такой способ допускается законодательством Республики Узбекистан и внутренними документами Банка. | 16.4. Ushbu Oferta doirasida Bank tomonidan shakllantiriladigan barcha xabarnomalar, xabarlar, ma'lumotlar, axborotlar va hujjatlar, agar bunday usul O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning ichki hujjatlari bilan ruxsat etilgan bo'lsa, elektron shaklda yaratilishi va saqlanishi mumkin. |
| 16.5. Электронные документы, сообщения, журналы операций, выписки, системные записи, файлы журналирования, данные дистанционных каналов обслуживания, сведения, полученные через систему «Notarius», и иные электронные доказательства, сформированные Банком в процессе обслуживания эскроу-счета, имеют юридическую силу в объеме, допускаемом законодательством Республики Узбекистан. | 16.5. Eskrou hisobvarag'iga xizmat ko'rsatish jarayonida Bank tomonidan shakllantirilgan elektron hujjatlar, xabarlar, operatsiyalar jurnallari, ko'chirmalar, tizim yozuvlari, jurnal fayllari, masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari ma'lumotlari, «Notarius» tizimi orqali olingan ma'lumotlar va boshqa elektron dalillar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida yo'l qo'yilgan hajmda yuridik kuchga ega hisoblanadi. |
| 16.6. Банк вправе привлекать для исполнения отдельных технических, сервисных, информационных, процессинговых, архивных, охранных, аналитических и иных функций третьих лиц, при условии, что такое привлечение не противоречит законодательству Республики Узбекистан и не освобождает Банк от соблюдения требований о банковской тайне, конфиденциальности, персональных данных и информационной безопасности. | 16.6. Bank alohida texnik, servis, axborot, protsessing, arxiv, qo'riqlash, tahliliy va boshqa funksiyalarni ijro etish uchun uchinchi shaxslarni jalb qilishga haqli, bunda bunday jalb qilish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmasligi hamda Bankni bank siri, maxfiylik, shaxsga doir ma'lumotlar va axborot xavfsizligi bo'yicha talablarga rioya qilish majburiyatidan ozod etmasligi lozim. |
| 16.7. За открытие и обслуживание счета эскроу Банк взимает комиссионное вознаграждение в соответствии с Тарифами Банка, действующими на дату оказания соответствующей услуги. Комиссионное | 16.7. Eskrou hisobvarag'ini ochish va unga xizmat ko'rsatish uchun Bank tegishli xizmat ko'rsatilgan sanada amal qiluvchi Bank Tariflariga muvofiq vositachilik haqini undiradi. Vositachilik haqi Arizada ko'rsatilgan usulda to'lanadi hamda |

| | |
|---|---|
| вознаграждение уплачивается способом, указанным в Заявлении, и взимается путем списания с банковского счета Депонента. | Deponentning bank hisobvarag‘idan yechib olish yo’li bilan undiriladi. |
| В случае, если сделка купли-продажи не была удостоверена нотариусом и денежные средства подлежат возврату Депоненту в соответствии с условиями настоящей Оферты, Банк осуществляет возврат ранее удержанного комиссионного вознаграждения за открытие счета эскроу. | Agar oldi-sotdi bitimi notarius tomonidan tasdiqlanmagan va pul mablag‘lari ushbu Oferta shartlariga muvofiq Deponentga qaytarilishi lozim bo’lsa, Bank eskrou hisobvarag‘ini ochish uchun ilgari ushlab qolingan vositachilik haqini qaytarishni amalga oshiradi. |
| Возврат комиссии осуществляется одновременно с возвратом денежных средств Депоненту с даты возникновения оснований для возврата. | Vositachilik haqining qaytarilishi qaytarish uchun asoslar yuzaga kelgan kundan boshlab Deponentga pul mablag‘larini qaytarish bilan bir vaqtda amalga oshiriladi. |
| В случае, если отдельные комиссии удержаны за фактически оказанные услуги, не связанные с удостоверением сделки нотариусом, порядок их возврата определяется Тарифами Банка. | Agar ayrim komissiyalar notarial tasdiqlash bilan bog‘liq bo’lmagan, amalda ko’rsatilgan xizmatlar uchun ushlab qolingan bo’lsa, ularni qaytarish tartibi Bank Tariflari bilan belgilanadi. |
| 16.8. Депонент подтверждает, что до совершения акцепта: | 16.8. Deponent akseptni amalga oshirishdan avval quyidagilarni tasdiqlaydi: |
| 16.8.1. ознакомился с текстом настоящей Оферты; | 16.8.1. ushbu Ofertaning matni bilan tanishib chiqqanligini; |
| 16.8.2. понял правовую природу эскроу-счета и специальный режим денежных средств; | 16.8.2. eskrou hisobvarag‘ining huquqiy mohiyatini va pul mablag‘larining maxsus rejimini tushunganligini; |
| 16.8.3. осознает, что Банк действует как независимый эскроу-агент и не проверяет юридическую действительность сделки по существу; | 16.8.3. Bank mustaqil eskrou-agent sifatida faoliyat yuritishini va bitimning yuridik haqiqiyligini mohiyatan tekshirmasligini anglashini; |
| 16.8.4. соглашается с порядком электронного взаимодействия между Банком и нотариусом через систему «Notarius»; | 16.8.4. Bank va notarius o’rtasidagi «Notarius» tizimi orqali elektron o’zaro hamkorlik tartibiga roziligini; |
| 16.8.5. принимает условия о блокировании денежных средств, автоматическом перечислении средств продавцу при наступлении предусмотренного основания, а также о возврате денежных средств в случаях, установленных законом и настоящей Офертой. | 16.8.5. nazarda tutilgan asos yuzaga kelganda, pul mablag‘larini bloklash shartlarini, mablag‘larni sotuvchiga avtomatik o’tkazishni, shuningdek qonun va ushbu Oferta bilan belgilangan hollarda pul mablag‘larini qaytarish shartlarini qabul qilishini. |
| 16.9. Настоящая Оферта вступает в силу с даты ее размещения на официальном сайте Банка либо с иной даты, прямо указанной | 16.9. Ushbu Oferta Bankning rasmiy saytida joylashtirilgan sanadan boshlab yoki Ofertaning matnida Bank tomonidan bevosita ko’rsatilgan |

| | |
|---|---|
| Банком в тексте Оферты, и действует до ее отмены, замены новой редакцией либо прекращения соответствующего банковского продукта.<br><br>**17. РЕКВИЗИТЫ БАНКА**<br><br>**Банк**<br>**АКБ «Asia Alliance bank»**<br><br>Юридический адрес: Республика Узбекистан, 100047, г. Ташкент, ул. Махтумкули, 2а<br>ИНН: 207 018 693<br>ОКЭД 96120<br>МФО 01095<br>Р/с: 2980 2000 0000 0109 5001<br>Тел.: +99871 2316000<br>Факс: +99871 2316060<br><br>**Председатель Правления**<br>**_______________________Абдуазимов У. А.** | boshqa sanadan kuchga kiradi va u bekor qilinguncha, yangi tahrir bilan almashtirilguncha yoki tegishli bank mahsuloti tugatilguncha amal qiladi.<br><br>**17. BANK REKVIZITLARI**<br><br>**Bank**<br>**«Asia Alliance Bank» ATB**<br><br>Yuridik manzil: O’zbekiston Respublikasi, 100047, Toshkent sh., Maxtumquli ko’chasi, 2a<br>STIR: 207 018 693<br>OKED 96120<br>MFO 01095<br>H/r: 2980 2000 0000 0109 5001<br>Tel.: +99871 2316000<br>Faks: +99871 2316060<br><br>**Boshqaruv Raisi**<br>**________________Abduazimov U. A.** |